



INGLIZ TILIDA SO‘ZLARNI YODLASH KO‘NIKMASINI OSHIRUVCHI OMILLAR

Axmadova Dilbar

SamDChTI 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Gulrux Xayrullayevna**

SamDChTI dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya: Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda turli xil tillarni, ayniqsa, dunyo tili sifatida tan olingan ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ushbu maqolada ko‘plab kichik va katta yoshdagi o‘quvchi yoshlar uchun katta muammoga aylanib ulgurgan lug‘at boyligini oshirishdagi qiyinchiliklar va ularga bir qancha usullar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at boyligi, antonim, sinonim, mnemonika, hikoyalar yozish usuli, so‘zlar oldiga rasm chizish usuli.

Ingliz tilida yuqori natijaga erishish uchun, albatta, lug‘at boyligi juda muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Birinchi paydo bo‘ladigan muhim savol – So‘zlar qanday yodlanadi? So‘z yodlash va uni o‘zlashtirish doim ikki bosqichdan iborat bo‘ladi: birinchisi – so‘z bilan tanishish va yod olish, ikkinchisi – eksplotatsiya, ya’ni uni turli o‘rinlarda ishlatishni boshlash. Agarda so‘z yodlash jarayonini bitta to‘liq doira deb oladigan bo‘lsak, u so‘zni tanib, yod olib, eslab qolganingizda, u doirani yarim qismini to‘ldirgan bo‘lasiz. Agarda siz bu so‘zni faol ravishda ishlata olganingizda, bu doira to‘liq shaklga ega bo‘ladi va butun jarayon tugaydi desak bo‘ladi. Doirani to‘liq shaklga keltirishda ikkinchi qism juda muhim jarayon hisoblanadi. So‘zlashuv jarayonida, insho yozishda yoki boshqa holatlarda mana shu o‘rganilayotgan so‘zni kamida o‘n marotaba



foydalanishga harakat qilish lozim va shu holatdagina bu soʻz sizning faol lugʻatingizga aylanadi [5]. Yangi soʻzlarni oʻrganish jarayoni haqida uchraydigan koʻplab nazariyalarda hali ham xotira masalasi boʻlib qolmoqda [3]. Shunday qilib, muvaffaqiyatli oʻqitish uchun amal qiladigan bir nechta umumiy tamoyillar mavjud boʻlib, har qanday usul uchun amal qiladi. Uollesning soʻzlariga koʻra, 1988-yil tamoyillari:


- Maqsad – nimani oʻrgatish kerak, qancha soʻzlar
- Ehtiyoj – maqsadli lugʻat oʻrganuvchilarning haqiqiy ehtiyojlariga javob berishi kerak
- Tez-tez takrorlash
- Mazmunli taqdimot – aniq va bir maʼnoli detonatsiya yoki havolaga ishonch hosil qilish kerak

Lugʻat oʻrganish jarayonida dastlabki muhim xususiyat soʻzlarni eslab qolish va ularning yozma va ogʻzaki holatini yodda tutishdir [1].

Bundan tashqari, ingliz tilini oʻrganishda yangi soʻzlarni yanada yaxshiroq yodlab olishga yordam beradigan quyidagi yettita maslahatni taklif etamiz [1]:

1. Birlashtiruvchi tarmoqlarni yaratish:

Bizning miyamiz biz oʻqigan narsalarni idrok etadi va uni tasvirlar, gʻoyalar va his-tuygʻularga aylantiradi, soʻngra yangi maʼlumotlar va biz allaqachon bilgan narsalar oʻrtasidagi aloqani hosil qiladi. Xotiralash jarayoni shunday boʻladi – yangi eski bilan birlashadi. Yangi soʻz yoki tushunchani siz allaqachon bilganingiz, miya oʻz vaqtida topish va eslab qolish osonroq boʻladi.



1-rasm

2. Iboralarni eslab qolish:

Iboralarni eslab qolish juda muhim, ammo ingliz tili, boshqa har qanday til singari, nafaqat tushunchalar to‘plami, balki odamlar bilan muloqot qilish va o‘z fikrlarini bildirishda foydalanadigan vositadir. Matnda muayyan so‘zning qanday ishlatilishiga doir misollar toping. Misollar yordamida iboralarni eslab qolish mumkin.

Masalan: As good as a gold – mehribon

Bite of more than you can chew – qo‘lingdan keladigan ishni gapir

Poke your nose into – hamma ishga aralashmoq

3. Rasmlardan foydalanish:

So‘zning ma’nosini eslab qolish uchun kichik rasmlar chizish yoki topish orqali ularni yodda saqlash osonlashadi. Bizning miyamiz vizual ma’lumotlarni yaxshiroq o‘qiydi. So‘zning ma’nosini aks ettirgan kulgili rasmni chizing, shunda siz uni tezroq eslaysiz (1-rasmga qarang).

4. Hikoyalar yozish:

Ingliz tilini o‘rganuvchilar, ko‘pincha, yangi so‘zlar juda ko‘p ekanligidan shikoyat qiladilar va ularni eslab qolish qiyindek tuyuladi. Siz so‘zlarni tezda o‘rganish uchun ishlatishingiz mumkin bo‘lgan bitta usul mavjud. Ingliz tilidagi barcha so‘zlar kiritilgan har qanday, hatto kulgili hikoyani yozing. Uni batafsil tasavvur qiling. Hikoyalarni, ayniqsa,



g'alati voqealarni osongina eslaymiz. Bu so'zlarni kulgili uslubda birlashtirish orqali hikoya tuzsangiz, so'zlarni yodda saqlash yanada osonlashadi.

5. Antonim va sinonimlarni eslash:

Qarama-qarshi ma'noga ega so'zlarni (antonimlarni) va o'xshash ma'noga ega so'zlarni (sinonimlarni) juft qilib yodlang. Biz shunga o'xshash va qarama-qarshi narsalarni tezda eslaymiz, chunki miya ular orasida aloqa o'rnatadi.

Masalan: easy – difficult, affectionate – brutal, wealthy – poor

Enthusiastic – eager, stout – skinny, uneasy – disturbing

6. Bir so'zni tarkibiga ko'ra ajratish

So'z nimani anglatishini taxmin qilish uchun ildizlar, suffiks va prefikslardan foydalaning. Masalan: "mikrobiologiya" so'zidan bexabar bo'lsangiz ham, bu nimani anglatishini taxmin qilishingiz mumkin. Birinchidan, "mikro" prefiksini ko'rib chiqing. Mikro juda oz narsani anglatadi, "-logy" qismi fan, nimanidir o'rganishni anglatishini bilishingiz mumkin. Shunday qilib, biz allaqachon biron bir narsani o'rganish haqida gaplashayotganimizni aytishimiz mumkin. Shuningdek, "bio" hayot, *tirik mavjudotlar* degan ma'noni anglatishini eslashingiz mumkin. Shunday qilib, "mikrobiologiya" bu mikroskopik tirik organizmlar haqidagi fan degan xulosaga kelishimiz mumkin [4].

7. Vaqtni to'g'ri taqsimlash:

Xotiralash jarayonlarini o'rganuvchi psixologlar narsalarni tez va uzoq vaqt yodlab olishning yaxshi usuli bor, deb ta'kidlashadi. Yangi so'zni taniganingizdan so'ng uni ishlating. 10 daqiqadan so'ng uni yana ishlating. Bir soatdan keyin, ertasi kuni qaytadan takrorlang. Keyin bir hafta davomida bu so'z ishtirokida gaplar tuzing. Shundan so'ng, uni eslashga harakat qilishingizga to'g'ri kelmaydi – yangi so'z boyligi siz bilan doimiy qoladi.

So'zlarni eslab qolishdagi yana bir muhim usul – bu **mnemonika**, ya'ni, o'xshashlik, bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun maxsus uslublar to'plamidir. Bunda yangi noma'lum bo'lgan tushunchalar inson ongida



allaqachon mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va natijada yangi axborotni eslab qolish osonlashadi [2].

Xulosa qilib aytganda, jadallik bilan rivojlanib borayotgan ilm-fan sohasida ommaviy jarayonga aylangan ingliz tilini o'rganishda bir qancha qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin, xususan, lug'at boyligini oshirishda yosh til o'rganuvchilar buni rad eta olmaydilar. Bu bosqichni birmuncha osonlashtirish uchun yuqorida ta'kidlab o'tilgan usullarni qo'llash juda foyda beradi, deb ayta olamiz. Ingliz tilini o'rganishda psixologik jihatdan turli xil qobiliyatlarga ega yoshlar uchraydi, shu sababli, bir nechta usullarni ta'kidlab o'tdik.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. [Dana Shejbalova. Methods and approaches in vocabulary teaching and their influence on students' acquisition. Masaryk university. 2006](#)
2. [Gulrux Xayrullayevna, Qarshiyeva Zulfizar. "O'qituvchi-o'quvchilar muloqotida pedagogik mahoratning ahamiyati". Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. Vol.2 №3 \(2024\). March. innovativepublication.uz.](#)
3. [Sharipova, Sarvinoz. "The role of coaching technology in the development of creative thinking and abilities of adults in language learning process. "Solution of social problems in management and economy 2.13 \(2023\): 5-12.](#)
4. <https://fledu.uz/uz/ingliz-tilidagi-sozlarni-yodlashning-7-samarali-usuli>
<https://prep.uz/news/umumiy/so-z-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari>